

Surxon tongi

2024-yil
4-dekabr
(chorshanba)
49-son
(17 930)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxontongi



ISLOHOTLAR
AMALDA

E'TIBOR, JONBOZLIK VA MAS'ULIYAT HISSI BILAN

Demak, marketingga ehtiyoj bor, targ'ibotni kuchaytirish lozim. Kuchaytirganda ham, sabablar asosli bo'lsagina, har qanday reklama ish beradi.

Odamlar tashrif buyurishi uchun sherning bolalashini kutib o'tirib bo'lmaydi-ku?!

Balki hayvonot bog'ida moddiy-texnikani yanada yaxshilash, yangidan yangi tur va zotlarni olib kelish kerakdir. Qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, 1934-yilda tashkil etilgan hayvonot bog'ida hozirda 105 turdagi 509 bosh noyob

Shahrimizda faoliyat yurita boshlagan har qanday savdo nuqtasi, tamaddixonona yoki ko'ngilochar manzil borki, tez fursatda o'z iste'molchisi, xaridoriga ega bo'ladi. Biroq yangiliklar odatiy tus ola boshlarsa, bu manzilda oyoq uziladi. Xuddi shunday Termiz hayvonot bog'i yangidan rekonstruksiya qilinganida, bu yerga keluvchilar safi kengaygan bo'lsa, bir muddat o'tib, qiziqish so'ndi — yana tomoshabinlar soni siyraklashdi.

hayvon va qushlar mavjud. Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz hayvonot bog'i faoliyati bilan tanishdi. Kelgusida bog'ni yanada rivojlantirish, 50 bosh yangi noyob turdagi hayvon va qushlarni xarid qilish, shuningdek, moddiy-texnika

bazasini mustahkamlash rejalari muhokama qilindi. Albatta, viloyatimizning barcha jabhada rivojlanishi, gullab-yashnashi uchun viloyat rahbari boshliq tashkilot va idoralar, jumladan, voha ahli-da birdamlikda, hamjihatlikda

harakat qilayotir. Qo'lni qo'lga berib qilingan harakat esa joylarda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatayotgani har birimizni ruhlantiradi, bunyodkorlikka, yaratuvchanlikka boshlaydi. Kimdir obodlik uchun yerga urug' qadayotgan, ko'chalarni tozalayotgan bo'lsa, ishonchimiz komilki, atrofdagilar jim qarab turmaydi, e'tiborsiz o'tmaydi. Darrov qarashishga, yordamga oshiqishadi. Termiz shahridagi qurilish, ko'kalamzorlashtirish, to'siqlarsiz muhit yaratish va ekologiya sohasidagi o'zgarishlar esa ayni harakatlarimizning natijasidir. Viloyat rahbari ushbu loyihalar bilan tanishish maqsadida

qator obyektlarida bo'ldi. Avtomobil yo'llari boshqarmasi binosida viloyatda yo'l xo'jaligi va suv ta'minoti sohaslarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Shu bilan birga, "Alpomish" mahallasida shaharning bosh rejasiga asosan amalga oshiriladigan loyihalar va namunaviy binolar bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi. Aytish kerakki, aholi xavfsizligi muhim jihat. Bu borada aloqador tashkilotlar va ularning xodimlari tinim bilmay mehnat-u harakatda. Xavfsizlik ta'minlanar ekan, odamlar xotirjam uyquga ketadi. Osoyishta yashar ekanmiz, kunimiz nurafshon o'tadi, boshqa

yumushlarga e'tibor qaratamiz, ishimiz bilan mashg'ul bo'lamiz. Xavfsizlik masalasini inobatga olib, Ichki ishlar boshqarmasining "Situatsion markazi" faoliyati bilan tanishgan viloyat hokimi fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va tezkor boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan mas'ullarga tegishli topshiriqlar berdi. Ha, bir so'z bilan aytganda, barcha sohalar viloyat rahbarining diqqat markazida. Bunday e'tibor, jonbozlik va mas'uliyat hissi barchamizda shakllansa, viloyatimiz yanada obod bo'ladi, har jihatdan rivoj topadi.

RAVON YO'LLAR OBOD MANZILLARDAN SO'Z OCHADI

DOLZARB MAVZU



Prezidentimiz tashabbusi bilan viloyatimizda avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, aholi farovonligi, hudud rivoji uchun qurilayotgan yangi yo'llar bilan yaqindan tanishish maqsadida voha bo'ylab sayohatga otlandim.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 4-apreldagi "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "4R105 Darband —Boysun — Elbayon" avtomobil yo'llarining 5-70 kilometr qismi va "4R100 Manguzar — Jarqo'rg'on — Bandixon — Oltinsoy — Denov" avtomobil yo'llarining 128-174 kilometr qismi rekonstruksiya qilinayotir.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi tomonidan Sherobodda ham yirik loyihalar ustida ish olib borilayotir. Sherobod tumanidagi 4R103 "Sherobod shahri — Surxon temir yo'l stansiyasi" avtoyo'llarining Sherobod daryosi ustida qurilgan ko'priq qariyb oltmish yoshda. O'tkazuvchanligi o'tgan asrdagi transport qatnoviga mo'ljallangan ko'priqda avtomobillar harakati ko'paygani yo'lda tirbandliklarni yuzaga keltirayotgan edi. Bu muammoga chek qo'yish, yo'lovchilarga qulay sharoit yaratish

Osoyishta tunlarimiz ortida, odamlarga qulaylik yaratish yo'lida bedor bo'lib, o'z xizmat vazifasini o'tayotganlar bor. Shubhasiz, shu onda xayolimizga kelgan shunday jonkuyar va fidoyi soha vakillari bu harbiylar. Biroq yana shunday kasb egalari ham borki, kun-u tun ishlab, hudud rivoji, xalq farovonligi yo'lida belni mahkam bog'lagan. Bu, shubhasiz, yo'Isolzardir.

maqsadida ko'priq to'liq qayta qurilmoqda. Ushbu manzilda qiymati 13,3 milliard so'mlik zamonaviy ko'priq qurilishi bilan ham

qilish jarayonlarini ko'zdan kechirdik. Uzunligi 111 kilometr bo'lgan yo'l 2027-yilda to'liq foydalanishga topshiriladi. Uning qariyb 108 kilometrini sement-beton qoplama bilan rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Yirik loyihani amalga oshirish chog'ida 26 ta ko'priq, 2 ta yo'l o'tkazgich, 114 ta suv quvuri, ikkita avtotransport



tanishdik. Uzunligi 72 va eni 26 metr bo'layotgan yangi ko'priqni "O'zyo'lko'priq-qurilish" klasterining Surxondaryo filiali davlat muassasasi bunyodkorlari barpo etmoqda. Shundan so'ng, mutaxassislar bilan birgalikda Boysun tumanidagi Darband qishlog'idan boshlanuvchi "Darband — Denov" yo'nalishi bo'yicha 4R105 avtomobil yo'llari rekonstruksiya

vositalarining vazn va hajm parametrlarini qayd etuvchi nazorat posti barpo etiladi. Uchta lot asosida amalga oshirilayotgan loyihaning qurilish-montaj ishlarini tender savdosi g'olibi — Ozarboyjonning "Lankaran Yol Tikinti" aksiyadorlik jamiyati amalga oshirmoqda. Bu yerda 147,6 million AQSH dollari qiymatidagi yo'l qurilishini bajarish uchun shartnoma imzolangan. Shu kungacha yo'Isolzlar 25,7 million AQSH dollarilik mablag'ni o'zlashtirib, 5,3 million metr-kub hajmdagi yer ishlari, 81,3 ming metr-kvadrat asfalt ko'chirish, 5,3 kilometr muhandislik tarmoqlarini o'tkazish ishlarini yakunladi. Loyihaning 28,6 kilometr qismida yer ishlari tugatilib, birinchi va ikkinchi qatlam tosh-shag'al yotqizilgan. 6,6 kilometr masofadagi yo'lda ishlar to'liq yakunlanib, beton yotqizilmoqda.

Ayni jarayonda zamonaviy

uskunalar bilan jihozlangan markaziy laboratoriyada bo'lib, sement, qum va boshqa birikmalar tarkibini o'rganish, mahsulotlar sifatini aniqlash yuzasidan yetarli tasavvurga ega bo'ldik. Yirik hajmdagi bu ishlar vohaning transport infratuzilmasini rivojlantirib, yo'lovchilarga qulay sharoit yaratmoqda. Yo'llar kengaytirilib, asfalt yotqizilayotir. Shuningdek, ichki yo'llar holati yaxshilanib, ulardan foydalanish sifati oshirilmoqda. Bandixon tumanidagi asfaltlash va Qumqo'rg'on tumani, "Davlatobod" mahallasidagi 13 kilometrdan ortiq ichki yo'lga sement-beton qoplama yotqizish ishlari bilan tanishib, viloyat yo'llari tom ma'noda bunyodkorlik maydoniga aylanganiga ishonch hosil qildik.

Eng quvonarlisi, yo'Isolzlar nafaqat avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash, balki bugungi kunda dolzarb masalaga



aylangan hududni yashil makonga aylantirish borasida ham bir qator muhim tashabbuslarni hayotga tatbiq etishga kirishishgan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida M39 xalqaro avtomobil yo'llarining Sherobod tumanidan o'tuvchi qismi bo'yidagi bo'sh maydonlarda kuzgi ko'chat ekish yumushlari bilan tanishdik. Loyihaning kuzgi mavsumida "Olmaota — Bishkek — Toshkent — Termiz" yo'nalishidagi M39 xalqaro avtomobil yo'llarining Termiz, Angor, Muzrabot, Sherobod tumanlari hududidan o'tuvchi 61 kilometr qismidagi bo'sh yerlar tekislanib, manzarali daraxt ko'chatlari

ekilmoqda. Buning uchun adir va toshloq maydonlardan iborat bu yerlarga unumdor tuproq tashib keltirilib, yo'l bo'yi ko'chat o'tqazishga hozirlandi. Kuzgi mavsumda yo'lining ikki bo'yidagi bo'sh yerlarga qariyb 300 ming tup turli daraxt ko'chati qadash rejalashtirilgan. Umumfoydalanishdagi avtoyo'llar yoqasiga ekilayotgan ko'chatlar kelgusida harakat ishtirokchilariga yanada qulaylik tug'dirib, atrof-muhit tozaligiga naf keltirishi shubhasiz.

— Bu yerga 3 500 tup archa, tut va chinor ko'chatini ekamiz, — deydi viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i Bahodir Xotamov. — Yomg'irlatib sug'orishni joriy etamiz. Bu yumushni tez, sifatli amalga oshirish uchun boshqarmaning yettita korxonasidan 200 dan ortiq ishchi va o'ndan ortiq texnika jalb etilgan.

Bu kabi tashabbuslarga "labbay" deb javob berayotgan yo'Isolzlar tasanno degimiz keldi. Sababi, ekilayotgan ko'chatlar unib-o'sib, kelgusida soya-salqini bilan aholiga qulaylik yaratishiga mas'ullar birlashtirilgan ishning puxta joriy etilganidan dalolat.

O'nqir-cho'nqir, chang-to'zonli yo'llar ortda qolib, taraqqiyot odimlari hayotimizga shiddat bilan kirib keldi. Yo'llar ravon, manzillar esa yaqin bo'lmoqda. Bu kabi qulaylik va zamonaviy infratuzilma ortida esa hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona va xalqparvar siyosat yotibdi, desak adashmagan bo'lamiz.

Yo'l qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari bilan tanishib, kechga yaqin uyga qaytar ekanmiz, ko'nglimda behad xursandchilik va soha xodimlarining mashaqqatli hamda sharafli kasbiga bo'lgan minnatdorlik hissi jo'sh urdi. Chunki, loy-chang, ta'mirlalab yo'llarda kechgan yillar ortda qoldi. Bugun viloyatimiz har jihatdan rivojlanmoqda, yo'llar ham, manzillar ham obod bo'lib, fuqarolar ravon yo'llarda katta maqsadlar sari odimlanmoqda.

Adolat MO'MINOVA

Elmurod AVAZOV,
Jarqo'rg'on tumani hokimi

“MAS’ULIYAT JAVOBGARLIKNI O‘Z ZIMMAMIZGA OLISHNI TALAB QILADI”

SOF TUSHUM 271,9 MILLIARD SO‘M

Bugun tumanimiz qiyofasi o‘zgarib, aholining hayot darajasi yuksalib bormoqda. Xususan, “Qorayontqo” mahallasidagi “Yangi O‘zbekiston” massivida ko‘p qavatli turar joy binolari, ko‘plab savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, qolaversa, umumta’lim maktabi va maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tibbiyot maskanlarining bunyod etilishi fuqarolarning turmush tarzining yaxshilanishiga xizmat qilib, shukronalik hissini uyg‘otmoqda. Barcha sohalarida o‘zgarishlar, yangilanishlar kuzatilayotgani har bir jarqo‘rg‘onlikning kayfiyatini ko‘tarib, yurt bilan faxrlanishga, insonparvarlikka, vatanparvarlikka chorlayapti. Jarqo‘rg‘on bo‘y‘lab kezar ekansiz, yo‘llarning ravonligi, so‘lim xiyobonlar hamda yashil maskanlar tumanning chiroyiga chiroy qo‘shayotganining guvohi bo‘lasiz.

Ana shunday o‘zgarishlarga hamohang tarzda tumanda zamonaviy sanoat tarmoqlarini tashkil etish va mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ham izchil davom etmoqda. Darhaqiqat, bugun tumanning iqtisodiy ko‘rsatkichlari haqida to‘xtalsak, tumanda 1918 ta korxonalar va tashkilot faoliyat ko‘rsatib, ulardan tovarlar, ishlar va xizmatlar sotishdan tushgan sof tushum 271,9 milliard so‘mni tashkil etadi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa 552,8 milliard so‘m, qurilish ishlari hajmi 330 milliard so‘m, sanoat mahsuloti hajmi 895,4 milliard so‘m, tumanda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish hajmi

742,3 milliard so‘m, tashqi savdo aylanmasi 16 883,8 ming AQSH dollarini, eksport 14 882,9 ming, import hajmi esa 2 000,9 ming AQSH dollarini tashkil etadi. “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga asosan 103 ta loyihalar amalga oshirildi, ajratilgan 10 milliard so‘m kredit mablag‘lari hisobiga tadbirkorlar o‘z faoliyatini kengaytirib, yangi ish o‘rinlarini tashkil etmoqda.

ELEKTR ENERGIYASI VA GAZDA UZILISH YO‘Q

Islohotlarning muvaffaqiyati uchun rahbarlikda mas’uliyat juda muhimdir. Mas’uliyat rahbarlarning o‘z qarorlari va amalga oshirilgan ishlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini talab qiladi. Shu sababdan barcha ishga mas’uliyatni unutmazlik, uyg‘oq vijdon va burch bilan harakat qilmoq lozim. Joriy yilning o‘tgan davrida 27 ta mahallada ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash maqsadida 36,5 km suv quvurlari tortilib, 32 ta nasoslarning almashtirilgani, 3 ta suv qudug‘i qazilib, 5 ta suv minoralari o‘rnatilgani, buning natijasida 856 ta xonadonning ichimlik suvi ta’minoti yaxshilangani ayni mas’uliyat bilan ishga yondashilganining isbotidir. Shundan so‘ng, suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan “Matonat”, “Gulhovuz”, “Qorayontqo” mahallalarida aholi to‘liq markazlashgan suv bilan ta’minlandi.

Joriy yilda tumanimizda elektr energiya tizimida ham muammolarni hal etishga qaratilgan tarixiy ishlar bajarildi. Ya’ni bundan 58 yil avval o‘rnatilgan, eskirib, quvvati yetishmay qolgan 2 dona eski 25 ming Kvtli transformator o‘rniga yangi 2 dona 40 ming Kvtli

transformator, bitta yangi kran uskunasi o‘rnatilib, ishga tushirildi.

Tabiiy gaz yetkazib berish masalasida tumanda 3 dona yuqori bosim gaz tarqatish punkti mavjud bo‘lib, mazkur GRPlarning uchalasi ham “Qo’shtepa” mahallasida olish hududida va bir joyda joylashgan edi. Bu esa gaz tarmoqlari masofasi uzayib ketganligi va iste’molchilar ko‘payganligi natijasida ayrim mahallalarda va sanoat korxonalarida gaz bosimi pasayishi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarar edi. Gaz ta’minoti korxonasi tomonidan mazkur 3 ta yirik GRP 3 ta joyga ko‘chirilishi va tuman markaziga yaqinlashtirildi, buning natijasida barcha tabiiy gaz iste’molchilariga kunning sovuq‘ida ham, issig‘ida ham bir maromda gaz yetkazib berish imkoniyati yaratildi.

Tanqis hududga kiritilmagan, lekin gazdan uzib tashlangan “Nurli diyor”, “Yangiobod”, “Do‘stlik” mahallalaridan mingta xonadon tabiiy gazga qayta ulab berildi. Shuningdek, tumanda maishiy gaz ballonlarini tashuvchi maxsus texnikalar yetishmasligi va mahallalarda gaz ballonlarini to‘ldirishda kechikishlar bilan bog‘liq muammolarni hal etish maqsadida 2 ta yangi texnika olib kelindi.

YO‘LLARIMIZ RAVON, KO‘CHALAR OBOD...

Ichki yo‘llarni yaxshilash borasida “Nurli diyor”, “Qo‘ldovli”, “Paxtavod” va “Navoiy” mahallalaridan o‘tuvchi 4R-100 avtomobil yo‘lining 3 kilometr qismi, “Yangiobod” va “Qo’shtepa” mahallasidan o‘tuvchi 4R-100 avtomobil yo‘lining 11 kilometr qismi, “Navro‘z”, “Ulug‘bek” va “Paxtavod” mahallalaridan o‘tuvchi 4R-100 avtomobil yo‘lining 1,2 kilometr qismida, “Ulug‘bek” mahallasining 0,9 kilometr qismida yo‘l qurildi.

Viloyat bo‘yicha eng uzun avtomobil yo‘llari Jarqo‘rg‘on tumaniga tegishli bo‘lib, jami uzunligi 1 234 kilometr, shundan avtoyo‘l 126 kilometr bo‘lib, uzunligi 168 kilometrni tashkil etadi. Avtomobil yo‘llarini yaxshilash borasida ham joriy yilda juda katta ishlar amalga oshirilganini va uzoq yillar davomida yo‘lovchilarni qiyin kelgan ko‘plab yo‘llarimiz yaxshilanganini xalqimizning o‘zi ko‘rib, baho bermoqda.

TA’LIMDAN TURIZMGACHA...

Barcha sohalar qatori ta’lim sohasida ham e’tiborga molik ishlar amalga oshirildi va davom etmoqda. Muhimi, kelajak avlodga munosib shart-sharoit yaratib, ta’lim-tarbiya olishlari uchun barcha imkoniyatlardan foydalanmoqdamin. Jarqo‘rg‘on tumanida 2 ta umumta’lim maktabida — 7-maktabning 180 o‘rinli va 45-maktabning 120 o‘rinli qo‘shimcha o‘quv binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. Ikki ta maktabda rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, 2 ta bog‘cha, 4 ta maktab hamda “Open budget” dasturi bo‘yicha 3 ta maktab va 2-son kasb-hunar kollejarini ta’minlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari amalga oshirildi.

Aholi sog‘ligi muhimdir. Shu sababdan ham tibbiyot sohasida ham yangi va yaxshi o‘zgarishlar amalga oshirildi. Kelgusida tumandagi 3 ta tibbiyot obyektlarini jehozlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlari bajariladi.

Bugun turizm yosh va rivojlangan sohalar sirasiga kiradi. Bu borada ko‘z-ko‘z etadigan jihatlarimiz talaygina. Madaniy meros

Islohotlar jamiyat hayotini yaxshilash, iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va siyosiy barqarorlikni kuchaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu orqali davlat xizmatlari yaxshilanadi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari isloh qilinadi, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari ko‘riladi. Albatta, mamlakatimizning izchil taraqqiyoti, inson manfaatlari yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaralari Jarqo‘rg‘on tumanida ham o‘z ifodasini topmoqda. Tuman ahli sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, qurilish, xizmat ko‘rsatish sohalarida fidokorona mehnat qilib, Vatanimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

obyektlari, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi rivoj topib borayotgan vohamizda mehmonlarni, xorijlik turistlarni jalb etish maqsadida barcha imkoniyatlardan foydalanamiz. Tuman markazidan o‘tuvchi Amuzang kanali bo‘yida 1,5 kilometrlik qismida turizm ko‘chasi tashkil etib, u yerda yoshlar sayilgohining qurilish ishlari olib borilmoqda.

JARQO‘RG‘ONDA O‘ZGARISHLAR EPKINI...

Albatta, so‘nggi yillarda Jarqo‘rg‘on tumanining qiyofasi tubdan o‘zgarib, tumanimizda ham osmono‘par binolar qad rostlab, mehmonxonalar, restoranlar, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari qurilib, foydalanishga topshirilib, eng katta qulaylikdir. Bu tumanda qurilish, ayniqsa, ko‘p qavatli uy-joylar qurish masalasida ham yangi qadamlar tashlanganini ko‘rsatib turadi. Joriy yilning o‘tgan davrida “Paxtavod”, “Yangiobod”, “Ulug‘bek”, “Surxon sohili” mahallalarida joylashgan ko‘p qavatli uylarning 12 tasida obodonlashtirish, tom qismlarini joriy ta’irlash, fasad va kirish yo‘laklarini ta’irlash, pardozlash, tarnovlarni almashtirish, lotoklarni qurish hamda betonlash ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, “Ulug‘bek” va “Surxon sohili” mahallalaridagi ko‘p qavatli uylarning 90 p/m irrigatsiya tarmoqlari ta’irlanib, 5 ta tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi. Bir necha yillar oldin boshlangan namunaviy loyihalarda asosida uy-joylar qurilishi bugun yaxlit industriyaga aylandi.

MANZILLI ISHLAB, ISHSIZLIKKA BARHAM BERYAPMIZ...

Tumandagi 4 948 ta xonadonda xatlov o‘tkazilib, 381 nafar ishlash istagi mavjud xotin-qizlar bandligiga ko‘maklashilgani ayni muddao bo‘ldi. Ularning 15 nafariga 180 million 962 ming so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratish evaziga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda amaliy yorda berdik. 134 nafariga 126 million 200 ming so‘m miqdorida bir martalik moddiy yordam pullari ajratildi, 4 nafar uy-joyga ega bo‘lmagan xotin-qizlarga 12 million 600 ming so‘m miqdorida ijara pullari to‘lab berildi, 4 nafar og‘ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan xotin-qizlar va ularning 1 nafar voyaga yetmagan farzandlariga jami qiymati 72 million 600 ming so‘m miqdordagi og‘ir tibbiy jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilishida yordam ko‘rsatildi. Uy-joyga muhtoj 7 nafar ayol uy-joy bilan ta’minlandi.

Yoshlar masalasida toifaga ajratilgan yoshlar bilan manzilli ishlar amalga oshirildi, tegishli tashkilotlarga birlashtirildi. “Yoshlar daftari”ga 175 nafar yosh kiritilib, shundan 15 nafari ishga joylashtirildi, 24 nafar yoshga 460 million imtiyozli kreditlar ajratildi, 33 nafar yosh kasb-hunarga o‘qitilib, subsidiya asosida asbob-uskunalar berildi. Bemor yoshlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun 11 nafar yoshga 18 million so‘m davolanish xarajatlari qoplandi. Shu jumladan, Auktsion orqali 9 nafar yoshga 6 gektar yer maydoni 30 yilga ijaraga olib berildi. Shuningdek, 92 nafar og‘ir” toifadagi yoshlar rahbarlarga birlashtirildi.

Bir so‘z bilan aytganda, kelgusi faoliyatimizda ham tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi uchun qulay sharoit yaratish borasida barcha mas’ullar, tumandoshlar bilan hamjihatlikda mehnat qilish — bosh maqsadimiz.

JARAYON

Oltinsoyliklarda bir yaxshi odat bor. Uzoqni ko‘zlab ish tutadi. Ayniqsa, ko‘zlagan ezgu ishlari davlat va jamiyat, xalqimiz manfaatiga xizmat qiladigan bo‘lsa, bu yo‘lda ahil va hamjihatlik bilan toki uni ro‘yobga chiqarmaguncha tinim bilmaydi. Tumandoshlarimizning maqsadlari tog‘dek ulug‘vor, niyatlari qoyadek mustahkam. Buni so‘nggi yetti yilda tumanda tadbirkorlar soni 3 barobarga, sanoat mahsulotlari hajmi 1,5 barobarga, xizmat ko‘rsatish 2,4 barobarga oshganidan ko‘rish mumkin. Ayni ishlarimizni izchil davom ettirish maqsadida kelgusi faoliyatimizda ham tuman aholisining turmush darajasini yaxshilash hamda Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlarni hayotga tatbiq etishda bor imkoniyatimizni ishga solib mehnat qilishga kirishganmiz.

Bahrom MAHMATRAYEMOV,
Oltinsoy tumani hokimi

“MAQSADIMIZ — TUMANDOSHLARIMIZ ROZILIGIGA ERISHISH”

TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH ORQALI YANGI ISH O‘RINLARI YARATILADI

Oltinsoy tumanida kelgusi besh yillikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib, birinchi navbatda, iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi ishlarni boshlab yubordik. Jumladan, kelgusida sanoat ishlab chiqarish 107,8 foiz, qishloq xo‘jaligi hajmi 104,6 foiz, xizmat ko‘rsatish hajmi 114,2 foiz va qurilish-pudrat ishlari 107,3 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. Sanoat ishlab chiqarish hajmida o‘lishni ta’minlashda har bir sanoat tarmog‘iga alohida e’tibor qaratish muhim. Xususan, yangi turdagi energiya tejamon materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 2,4 barobarga, tog‘-kon sanoatiga xorijiy investorlarni jalb qilish, “Badihavo” massivida bazalt konlarini, “Xo‘jayipok” mahallasida ko‘mir va gips konlari, “Katta Vaxshivor” mahallasida temir rudasi, dolamit xomashyosi hisobiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,8 barobarga o‘lishni ta’minlash bosh maqsadimiz.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davom ettirilib, 2 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etishga alohida ahamiyat qaratamiz. Buning uchun, 50 gektar yer maydonlari hamda bo‘sh turgan 10 dan ziyod davlat aktivlari omamaviy savdolarga chiqarishni reja qilganmiz. Aholi bandligini ta’minlash borasida ham ishlarni davom ettirib, tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish va “Kambag‘alilikdan farovonlik sari” loyihasi doirasida kambag‘alilikka barham berish bo‘yicha tizimli ishlar tashkil etamiz. Buning uchun yoshlar kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitiladi, mahallalarda 5 mingdan ziyod mikro va kichik loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilganmiz.

Xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolar kasblarga va xorijiy tillarga o‘qitish hamda ularni Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarga yuqori daromad oladigan ishlarga yuborishni tashkil etamiz.

Tumanda investitsion muhitni yanada yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilib, mavjud imkoniyat va zaxiralardan samarali foydalanib, yangi quvvatlarni ishga tushirish va eksport hajmini oshirish masalasi ham diqqat markazimizda. Xususan, umumiy qiymati 214 million AQSH dollariga teng bo‘lgan 500 ga yaqin yangi investitsion loyihalarni ishga tushirish hisobiga 3,2 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari tashkil etishga bel bog‘laganmiz. Shuningdek, kichik va yoshlar sanoat zonalarini hamda yoshlar innovatsion ishlab chiqarish zonalarini faoliyatini kengaytirish yo‘lga qo‘yiladi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya yo‘nalishida istiqbolli konlarni auktsion savdolariga chiqarish va realizatsiya qilishni tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalar hajmi 60 million AQSH dollariga yetkazamiz.

1000 GEKTAR MAYDONDA “OLTIARIQ TAJRIBASI” YO‘LGA QO‘YILADI

Oltinsoy tumanida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda ertachi eksportbop mahsulotlarni yetishtirishni ko‘paytirish orqali meva-sabzavot mahsulotlari eksportini 2 baravarga oshiramiz. Xo‘jasoat massivida 1000 gektar

maydonda “Oltiariq tajribasi” asosida uzum yetishtirishni yo‘lga qo‘yish orqali sohada mahsulot yetishtirish hajmi yanada ko‘payadi. Chorvachilik sohasida 20 ta loyihalar amalga oshirilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga oshirishga erishamiz. Qorliq massivida 2000 gektar lalmi yer maydonlarida yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish orqali 2500 bosh chorva mollariga moslashtirilgan chorva kompleksini ishga tushiramiz.

Suv resurlari cheklangan, uni isrof qilmasdan samarali foydalanish dolzarb masala. Kelgusida tumanimizda suvdan foydalanish samaradorligini 35 foizga oshirishga erishsak, isrofnig oldini olgan bo‘lamiz. Buning uchun, 80 kilometr kanal va kollektor-drenaj tarmoqlarini ta’irlab, 10 ta kanalni beton qilishni rejalashtirganmiz. Shuningdek, “Chilmirob” kanalini rekonstruksiya qilish hisobiga 5 200 gektar ekin maydonlarida suv ta’minoti yaxshilanadi, 3 500 gektar foydalanishdan chiqqan yerlarni foydalanishga qaytarish hamda 1 500 gektardan ortiq lalmi yerlarni o‘zlashtirish imkoniyati mavjud. Ayni imkoniyatlardan unumli foydalanish, 1 200 ta xonadonning tomorqada ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi va 6 ming nafar aholi ish bilan band bo‘ladi.

Tumandagi “Oqsuv” nasos stansiyasining 3 ta agregatini modernizatsiya qilamiz, 5 ming gektar maydonning suv ta’minotini yaxshilash bilan birgalikda 1,5 ming gektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritamiz. Kelgusi 5 yilda 3,5 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilish bo‘yicha harakatni boshlab yuborganmiz. Shu jumladan, ichimlik suvi ta’minoti darajasini ham 65 foizdan 85 foizga oshirishga erishamiz, xorijiy moliya instituti mablag‘lari hisobidan tumanda 56 kilometr oqava suv tarmoqlari (kanalizatsiya) va markaziy tozalash inshooti qurilishi ham kelgusi rejalashtirishda o‘rin olgan.

TA’LIM: SIFAT BOSQICHIGA OLIB CHIQILADI

Ta’lim-tarbiya va aholi salomatligi sohasi muhim yo‘nalishlardir. Shunday ekan, kelgusi 5 yilda tumanda ta’lim va zamonaviy kasblarni o‘rganish uchun zarur sharoitlarni yaratish bosh maqsadimizdir. Aholi o‘lishi hisobga olinib, yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablar tashkil etamiz, bu orqali hududlarda bog‘cha qamrovini to‘liq ta’minlashga erishamiz. Bu bilan kifoyalannmay, pedagoglarning ilmiy mahorati va kasb malakasini-da oshiramiz. Barcha maktablar zamonaviy kompyuter sinflari va interaktiv doskalar bilan jehozlanadi. Oliy ta’lim qamrovi 35 foizdan 50 foizga yetkazilsa, demak, biz o‘z vazifamizni bajarib, maqsadga erishgan bo‘lamiz.

“Ma’naviyat sektori” faoliyatini esa haqiqiy sifat bosqichiga olib chiqish orqali kutubxonaga yoshlar qamrovini oshiramiz. Yoshlarning chet tillarini o‘rganish va kasb qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlab, ularni ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlash birlamchi vazifamizga aylanadi. Bunda alohida yondashuv va xorijiy tajribalar asosida ishlarni tashkil etsak, kifoya.

SOHALARDA MUAMMOLAR BARTARAF ETILADI

Kelgusi 5 yilda qurilish, infratuzilmani yangilash hamda

yangi uy-joylar qurilishida zamonaviy shaharsozlik va arxitektura yutuqlaridan foydalangan holda har bir massiv, mahalla va ko‘chalarni obod va go‘zal maskanlarga aylantiramiz. Xususan, tumanda kelgusi besh yilda jami 100 dan ortiq obyektida qurilish-ta’irlash ishlari olib boriladi.

Elektr ta’minotidagi muammolar ham bosqichma-bosqich barataraf etilib, 19 kilometr yuqori kuchlanishi 110 kV elektr uzatish tarmoqlarini tortish orqali 110/35/10 Kv quvvatli yangi podstantsiya quramiz. Natijada, 21 mingdan ziyod aholi xonadonlari hamda 200 dan ziyod ijtimoiy soha va tadbirkorlik obyektlarining elektr energiyasi ta’minotini yaxshilashga erishgan bo‘lamiz.

45 KILOMETR KANALLAR BETONLANIB, 250 DONA INSHOOTLAR REKONSTRUKSIYA QILINADI

Respublika va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo‘llarini, shuningdek, umumiy foydalanishdagi ichki yo‘llar hamda ko‘priklarni ta’irlash ishlari ham diqqatimiz markazidagi masaladir. Bunda xalqaro moliya institutlari mablag‘ va grantlari hisobidan bir qator yirik loyihalarni amalga oshiramiz. Germaniya taraqqiyot banki ishtirokidagi “Oltinsoy tumani oqava suv tizimini qurish va rekonstruksiya qilish” loyihasi amalga oshiriladi. Xitoy Eksport-import banki krediti asosida “Sug‘orish kanallarini rekonstruksiya qilish” loyihasi yuzasidan Oltinsoy tumanida 45 kilometr kanallarni betonlash va 250 dona inshootlarni rekonstruksiya qilish ishlari olib boramiz.

IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANIB...

Tumanimizda turizm bo‘yicha imkoniyatlar va mavjud resurslardan samarali foydalanib, turizmni 2,5 baravarga rivojlantirishni maqsad qilib olganmiz. Bunda, “Xo‘jayipok” mahallasida ekoturizm obyektlari, “Vaxshivor” hududida ziyorat turizmi faoliyatini yo‘lga qo‘yishni rejalashtirdik.

Yoshlar bilan ishlash yangi bosqichga ko‘tarilib, ularning bilim olishi, bandlik masalalari alohida nazoratimizda bo‘ladi. Bunda yoshlarni axborot texnologiyalari va sun‘iy intellektdan foydalanish bo‘yicha o‘qitish va ularni zamonaviy raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirish oldimzida turgan eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Buning uchun Oltinsoy tumanida “Yoshlar texnoparki” tashkil etiladi.

Tinch va osuda yurtda taraqqiyot bo‘ladi. Tumanda jinoyatchilikning oldini olish dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada “Xavfsiz hudud” konsepsiyasi samara beradi. Bundan tashqari, aholi o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, manaviy-ma’rifiy va sog‘lomlashtirish tadbirlarining muntazam o‘tkazib borilishi, oilaviy ajrimlarning oldini olish borasidagi ishlarni yanada jonlantirishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, biz rahbarlardan talab qilinadigan ish: jonkuyarlik, yurtga fidoyilik va talabchanlikdir. Har bir kunimiz xalqimiz turmush tarzi, yurtimiz obodligi, farzandlarimiz kelajagiga daxldorlik bilan o‘tsagina, biz o‘z vazifamizni astoydil bajarayotgan bo‘lamiz.

Ayol – bu soʻz zamirida olam-olam ma'no mujassam! Bilmam, u tabiatning qay unsuridan yaratilgan ekan?! Yoki tangrim ayolning eng shod kunida kulgilariga mehnatini, yuzlariga mehr oftobini, koʻzlariga dunyo ummonini, soʻzlariga koʻngillarni asir etguvchi sehrliforini, poylariga jannat ostonasini mujassam etib yaratganmikan?!



ILMGA BAXSHIDA UMR

Bir qoʻlida beshik, bir qoʻlida dunyoni tebratuvchi beqiyos zot – ayol haqida ayni topib aytilgan ta'rif. Shunday ta'rif-u tavsiflarga loyiq ustoz, mehridaryo buvi, betakror va bag'rikeng ona, olim ayol O'g' iloy Sultonovadir. Ustozning ism-sharifi nafaqat katta-katta auditoriyalarda,

darslik va qo'llanmalarda, ma'naviyat-ma'rifat maskanlarida, balki ming-minglab shogirdlar, vohadoshlarimiz, yurtdoshlarimiz qalbidan joy olgan. Umrini fizika fanining rivoji uchun baxshida qilgan, ilm-fanimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan ustozni nafaqat viloyatimizda, balki butun

O'zbekistonda ko'pchilik yaxshi taniydi. Asli angorlik olim ayol o'quvchilik davrlarida maktabda a'lo bahoga o'qidi. Toshkentda oliy ta'limni o'qish chog'ida ham o'zining tirishqoqligi bilan ustozlari e'tirofiga sazovor bo'ldi. O' qishni tamomlab, Surxondaryoga qaytdi. O'zini tug'ilib o'sgan joyidan ayro tasavvur eta olmadi. Mehnat faoliyatini Angor tumanidagi o'rta maktabdan boshladi. O'g' iloy Sultonova 2013-2017-yillar oralig'ida Termiz davlat universiteti "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi bo'lish bilan birga Termiz shahridagi 4-Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritdi. Ilm katta va adoqsiz yo'l. Bu yo'lda qancha yursangiz, hayot haqiqatlarini teranroq anglarkansiz. Moddiyat, mol-dunyo havasi sizni tark etib, eng oliy boyluk va xazina aslida ilm ekanligini tushunib yetarkansiz. Bu esa, o'z navbatida, tinimsiz izlanish va o'rganishni talab etadi. Borgan sari salohiyatingiz sayqallanib, kamolot pillapoyalaridan yuqori ko'tarilib boraverasiz.

Ustoz O'g' iloy Sultonova 2007-yilda "O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi fan nomzodligi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Keyinchalik dotsent unvonini oldi. 2017-yildan hozirga qadar Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universitetida "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Pedagog olimaning dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish yozildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining tavsiyasi bilan bitta darslik, 2 ta monografiya, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda, OAK va xorijiy jurnallarda 40 ga yaqin ilmiy maqolalari chop etildi. Ustozning 2018-yilda "Yangi pedagogik texnologiyaning didaktik asoslari" o'quv qo'llanmasi chop etilgan bo'lsa, 2021-yilda "Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" mavzusida amaliy loyiha asosida ish olib bordi. Shu yilning o'zida "Fizika fanidan savol va masalalar" nomli darsligi nashrdan chiqdi. Ilmiy maqolalari dunyoning mashhur jurnallarida e'lon qilinganligining o'ziyoq, olimaning fan sohasida qo'lga kiritgan ulkan g'alabasi desak, mubolag'a

SHUNDAY USTOZ BOR.
bo'lmaydi. Eng quvonarlisi, 2022-yilda qahramonimiz "Oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishga muvaffaq bo'ldi. 68 yoshida barchaga namuna bo'lgan ilm fidoyisining bu yutug'i institut jamoasini ruhlantirdi. Bugungi kunda o'nlab ustozlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilayotgan benazir ustoz davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib kelmoqda. Jumladan, "Xalq ta'limi a'lochisi", "Mehnat shuhrati" ordeni, "O'zbekiston Respublikasining 30 yilligi" esdalik nishoni, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni qahramonimizning ko'ksini bezab turibdi. Ustoz 6 nafar farzandning mehribon onasi, 20 dan ortiq nabiraning sevimli buvijonidir. Farzandlari bugungi kunda el koriga yarab, turli vazifalarda faoliyat yuritishmoqda. Bir so'z bilan aytganda, bugun muborak 70 yoshini qarshilayotgan universitetimiz, qolaversa, Surxondaryo ayollari faxri, professor O'g' iloy Sultonova bilan haqli ravishda faxrlanamiz.
Nigora XUDOYOROVA,
Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universiteti o'qituvchisi

TURMUSH CHORRAHALARIDA

Usta Odil yakshanba kuni odatdagidan barvaqt uyg'ondi. U to'nini yelkasiga tashlab tashqariga chiqdi. Usta otxona tomon o'tib borayotib, ko'zi o'choq boshida kuymalanib qora chovgum tagiga olov yoqayotgan Zulayhoga tushdi.
— Xotin, xo'rjingga 3-4 ta kichik xaltachalar tashlab qo'y, — dedi-da o'tib ketdi.
Odil ko'kqashqani minishga tayyorlab, o'tovga yetaklab keldi. U ko'rpacha ustida chordona qurib o'tirdi-da, sopol choynakdagi choydan icha boshladi. U tamaddi qilib bo'lishi bilan ko'kqashqani minib, shaharga

boshladi:
— Mayli boraman, amaki.
Usta g'izillab borib, go'sht do'konidan go'sht olib qaytdi-da, Olloyorni yetaklab uyiga qaytdi. Quyosh tik kelganida usta Odil uyiga yetib keldi. Bolalar otasini ko'rishi bilan usta va Olloyorni o'rab olishdi. Odil xo'rjinni Zulayhoga tutqazdi va o'tov ichkarisiga kirdi. Bolalar qurshovida o'tirgan Odil Zulayhoga tayinladi:
— O'g'lim Olloyorni bir yuvintiraylik, xotin suv olib chiq, — dedi. U Olloyorni yetaklab tashqariga chiqar ekan, daraxt soyasiga o'tdi. Usta yuvintirib bo'lishi bilan Zulayho ko'ylak, ishton, yaktak olib keldi. Oila a'zolari Zulayho tayyorlagan oshni

erkaklar bajaradigan ishlar ancha-muncha bor. O'zim shu ishlarni bajarishga ba'zan vaqt topolmay qolaman. Siz uyimizda ijara tursangiz, shu ishlarni bajarishda yordamingiz tegarmidi, — dedi Akbar Shoqosimov.
Olloyor domlanning gapi bilan uning uyida turadigan bo'ldi. Oradan yillar o'tib, Akbar Shoqosimov bilan usta Odil quda-anda bo'lib ketishdi. Olloyor oliygohni bitirishi bilan Akbar Shoqosimov uni ishga olib qoldi.

Usta Odilning tashabbusi bilan Shohistaxon qishloqqa kelin bo'lib tushdi. Olloyor ham, Shohista ham shifoxonada vrach vazifasida ishlay boshladi. Usta Odil kelini o'z hovlisida bo'sh turgan uch xonali uyga tushirib kelgan edi. Usta ham, Zulayho ham Shohistani o'z qizlaridek qabul qilishdi. O'rtadagi mehr-oqibat oilaning to'ng'ichi Xurram va ayoli Zubaydaga yoqmas edi. Zokir bundan 5 yil muqaddam giyohvand moddalar bilan shug'ullanuvchi hamtovoqlarining kasriga qolib, ozodlikdan mahrum etilgan edi. Xurram ukasining ozod etilishi yaqinlashishi bilan otasi xonadoniga kelib janjal chiqarar edi.

— Ota, bir kelgindini o'g'lim deb hovlining to'ridan uy-joy berib qo'yibsiz, meni-ku uzoqlashtirdingiz. Erta-inda ukam kelib qolsa, qayerda yashaydi. Zokirni ham uylantirib, unga ham uy-joy berib qo'y, — deb baqirib-chaqirib, otasining asabiga tegar edi.
Olloyor bunday mojarolarning bir nechtasiga bevosita guvoh ham bo'ldi. Usta Odil va Zulayhoning tinch va xotirjam yashashini o'ylab, Olloyor qayinotasining hovlisiga ko'chib ketdi.

Zokir ozodlikka chiqqach, uni uylantirishdi. Zokir biror joyda ishlamadi. Kelin esa o'z bilganidan qolmadi. Oiladagi barcha og'irlik usta zimmasiga tushib, kalovlanib qoldi. Shanba kuni Zokir bosar-tusarini bilmay, usta Odil bilan janjallashib qoldi. Hafta-o'n kun o'tib, Xurram ham, Ziyoda ham otanasiga "nayza"sini sanchib ketdi. Bu ham yetmaganday, Zokir otanasiga o'sh qirib janjal ko'tardi. Usta Odil bu to's-to'polonga bardosh bera olmay, molxonaga borayotib dab-durustdan yiqilib tushdi...

U o'sha kuni insult olgan ekan, yotib qoldi. Olloyor bu sovuq xabarni eshitib, yengil avtoulavda keldi-da, ota-onasini shaharga olib ketdi. Usta Odil ertasi Akbar Shoqosimov ukasi boshliq shifoxonaga yotqizildi. Muolajalardan keyin usta Odil sog'ayib, o'g'li Olloyor xonadoniga qaytdi.

Ochil XUDOYBERDIYEV

TARIX TILGA KIRGANDA...

BUDDAVIYLIK va QORATEPA

Buddaviylik eng qadimiy dinlardan biri bo'lib, miloddan avvalgi V-IV asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan.

Buddaviy missionerlar sharqiy va g'arbiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatib, O'rta Osiyoda asosiy budda yodgorliklari Baqtriya-Toxariston va Yettisuv hududlarida paydo bo'lgan. Marg'iyonada ikkita va Farg'onada bitta yodgorlik qayd etilgan.

Baqtriya-Toxariston Amudaryoning yuqori va o'rta havzasida Janubiy Tojikiston, Janubiy O'zbekiston va Shimoliy Afg'onistonning bir nechta provinsiyalarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar Baqtriya buddaviylik kirib kelgan birinchi maskanligini tan olishadi. Ular qachon kirib kelganligi borasida aniq to'xtama kelinmagan.

Litvinskiy buddaviylik Baqtriya Kushonlar saltanati davrida kirib kelganligini yozib qoldirgan bo'lsa, G.Pugachenkova va E.Rtveladze buddaviylik eramizning boshlarida kirib kelib, milodiy I-III asrlarda ravnaq topgan deb hisoblaydilar. Yozma manbalarga suyanib, hind olimi B.Mukerji buddaviylik Sharqiy Turkistonni milodiy I asr o'rtalarida, Xitoyga esa milodiy 65-yilda kirib kelganligini aniqlagan. Lekin Qoratepa va Fayoztepa yodgorliklari fransuz olimi I.Fusman tomonidan milodiy 20-50 yillarda bunyod etilganligi isbotlangach, buddaviylik dinining rivojlanish yillari oydinlashadi.

Mashhur Kushon hukmdori Kanishkaning o'zi buddaviylikni qabul qilgan bo'lsa-da, u tomonidan boshqa dinlarga nisbatan tolerantlik davom etgan. Missionerlar ko'proq hukmron tabaqalar bilan yaqinlashishga harakat qilishgan. Ular homiylikda qurilgan buddaviylik ibodatxonalariga hukmdorlar nomi berilgan. Qoratepa monastiridagi qazishmalar paytida "hukmdor vixarasi" kabi sopolga bitilgan yozuvlar topilgan.

B.Stavitskiyning hisoblashicha, Shimoliy Baqtriya hududida I-III asrlarga oid 12 ta turli xildagi buddaviylik inshootlari aniqlangan. Kushonlar saltanatida Baqtriya buddaviylikning gullab-yashnagan arxeologik tadqiqotlar ashyolari orqali namoyon bo'lmoqda.

Sosoniylar istilosi natijasida Shimoliy-G'arbiy Baqtriya-Toxariston hududidagi budda obidalarining inqirozi sezila boshlaydi. IV asr boshlarida Qoratepa qarovsiz, tashlandiq holatga kelib qoladi.

Shaxnoza QUVATOVA,
Termiz arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimi



FARZANDLAR

ishtaha bilan yeyisharkan, usta Odil Olloyor bilan bolalarni yaqindan tanishtirdi. To'ng'ich o'g'li Xurram 1-sinfda o'qir, Zokir hali 5 yoshga to'lgan edi. Qizi Zaynab oilaning kenjasi edi.

Saraton o'tib, kuz keldi, Olloyor ham 1-sinfga qatnay boshladi. U ziyrak va uquvli chiqdi. 7-8-sinflarda o'qiyotgan paytlari ustaxonaga borib, Odilga u-bu ishlarda ko'maklasha boshladi. 10-sinfda o'qiyotgan paytlari pichoq, o'roq singari uy-ro'zg'or buyumlarini yasashni eplay oldi. Maktabda ham a'lo baholarga o'qirdi. Akasi Xurram yalqovroq, dangasaroq yigitcha bo'lib yetishdi. Xurramni o'qiyotgan paytlari pichoq, o'roq singari jo'natishdi. U o'sha yili imtihonlardan o'ta olmadi. Ikkinchi yili bog'dorchilik texnikumiga o'qishga kirdi.

Olloyor birinchi yiliyiq tibbiyot oliygohining davolash bo'limiga imtihon topshirib, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi. O'sha yillari talabalar ikki yarim oy paxta terimiga chiqar edilar. Olloyor 2-bosqichga o'tgan yili stipendiya olib o'qidi. O'qishda ham, jamoat ishlarida ham tengqurlariga o'rnak bo'lgan Olloyor davolash bo'limi dekani Akbar Shoqosimovga yoqib qoldi.

Chorshanba kuni edi. Tozalik, obodonchilik ishlarini bajarayotgan Olloyorga domlanning fikrini yetkazishdi. O'sha kuni dekan huzuriga borib, Akbar Shoqosimov bilan suhbatlashdi.

— O'g'lim, siz odobli, axloqli va ilmga intiluvchan talaba ekanligingiz tufayli menga yoqib qoldingiz. Biz oilada uch kishimiz. Yangangiz Xojiya Shoislomova maktabda o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars beradilar. Qizim Shohista shu oliygohning davolash bo'limida o'qiydi. Ro'zg'orda

SURXON TONGI
va
ЗАРЯ СУРХАНА
gazetalari tahririyati

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY'ATI
Jo'rabek TO'RAYEV (hay atrasi)
Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Salohiddin NORQOBILOV
BADIIY MUHARRIR
Xurshid KARSHIYEV
MAS'UL MUHARRIR
Sayyora ALLAYEVA
SAHIFALOVCHI-DIZAYNER
Dildora VOHIDOVA

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Reklama va marketing xizmati:
76 224-23-85
TELEFONLAR:
76 224-23-80, 76 224-22-88

Qo'g'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq
Nashr indeksi: 6 500
Bosishga topshirildi—09:00
Bosildi—11:00
Adadi 3 520 nusxa.
Buyurtma G-

MANZILIMIZ:
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy
BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.